

CHET TILINI O'RGANISHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI OSHIRISH METODLARI

Shukurova Farida Xayrilla qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti. 13.00.02- Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

Annotatsiya: *chet tilini o'rganish jarayonida kommunikativ kompetensiyani oshirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu metodlar o'quvchilarga tilni amaliy ravishda qo'llash, muloqot qilish va madaniy kontekstni tushunish imkoniyatini beradi. Chet tilini o'rganishda kommunikativ kompetensiyani oshirish uchun samarali metodlarni taqdim etiladi, bu esa o'quvchilarning tilni amaliy ravishda qo'llash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *interaktiv o'qitish, rol o'ynash, munozalar, guruhli ishlash, dialorglar, refleksiya, tanqidiy fikirlash, amaliy qo'llash, fikr almashish, video materiallar, platformalar.*

Chet tillarini o'zlashtirishda hozirgi kunda zamonaviy metodika prinsiplarining eng muhim tomoni kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishdir. Zamonaviy chet tili o'qituvchisi faqatgina o'zining til bo'yicha bilimiga, o'quvchi shaxsini psixologik-pedagogik rivojlanish qonuniyatlarini bilishgagina tayanib qolmasligi kerak. Shu bilan bir qatorda u ma'lum kasbiy-kommunikativ, ya'ni spetsifik sifatlar, ko'nikmalarni rivojlantirishi kerak. Ular unga birinchidan o'quvchilarni o'quv faoliyatidagi ichki, «yashirin» rezervlarini boshqarishga imkon beradi, ikkinchidan o'quvchilarni minimal kommunikativ darajada bo'lsa ham chet tillarini o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. U holda ham, bu holatda ham psixologik-uslubiy rezervlar muloqotga kirishi chet tilidan muloqot vositasi sifatida foydalanish mahoratiga bog'liq. O'quvchilar chet tilini o'rganayotganda muloqotda foydalaniladigan belgilar tizimi sifatida tilning tabiatini tushunishdan boshlashlari kerak. Bu suhbat davomida rasmiy tilni bilish (fonetika, lug'at va grammatika), shuningdek, til tizimini bilishni o'rganish kerakligini anglatadi. Natijada, treningda chet tilini o'rganishga kommunikativ va kognitiv yondashuvlar keng tarqalgan. Umuman olganda, kommunikativ yondashuv ingliz tilini aloqa vositasi sifatida tartibli, uslubiy va bog'liq holda o'qitishga qaratilgan o'qitish strategiyasini qo'llashdir. 2012 yil 10 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qabul qilgan 'Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida PK-1875-sonli qarori qabul qilindi. Darhaqiqat, bugungi taraqqiyot har bir o'qituvchidan o'ziga xos ijodkorlik, malaka va tajribani talab qilmoqda. Qarorga ko'ra, chet tilini barcha umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-sinfidan boshlab ommaviy tarzda o'rganish joriy etildi. Chet tilida nutqiy faoliyat yuritish o'quvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltiradi, ya'ni o'rganilayotgan til sohibi yaratgan madaniy merosni o'zlashtirishga erishiladi. Tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv

jarayonida o'quvchi oldin egallagan ijtimoiy, madaniy, lisoniy, emotsional tajribasini boyitadi. Muloqotdosh (kommunikant)larning bir-birini tushunishlari chet tilini bilishning asosiy mezonini hisoblanadi. Ta'lim tizimidagi boshqa fanlardan chet tilining farqi bir paytning o'zida uning ham ta'lim maqsadi, ham ta'lim vositasi ekanligida namoyon bo'ladi. Chet tilida nutqiy malakalar (tinglab tushunish, gapirish, yozish, o'qish) ni egallash ta'limdan ko'zlanadigan maqsad bo'lishi bilan birga, o'rganilayotgan til yangi va foydali axborot (informatsiya) olish, yetkazish maqomini ham oladi.

Talabalarning kommunikativ kompetentligini oshirishda CLT (Communicative language Teaching) metodining o'rni beqiyos. Ushbu metod XX asrning 70-yillarida Angliyada vujudga keldi va til o'qitish tizimiga o'ziga xos yangilik bo'lib kirib keldi. Bunga sabab, endi o'quvchilar til o'rganish jarayonida nafaqat grammatika, balki so'zlashuv imkoniyatiga ega bo'lishadi va bu metod bir tilda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan. G'arb mamlakatlarida CLT metodi tezlik bilan tarqalib shuhrat qozondi, ammo bu holat Osiyo mamlakatlarida odatda sekinlik bilan rivojlanmoqda. Bunga sabab esa, Osiyo mintaqalari mamlakatlarida CLTni tatbiq etishda muvaffaqiyatga erisha olmagan omillar qatoriga ba'zi mamlakatlarda qo'llaniladigan sinovdan o'tgan ta'lim tizimi, ingliz tilini o'rgatishda o'qituvchiga yo'naltirilgan yondashuv va o'qituvchilarning CLT yondashuviga salbiy munosabati kiradi. Til o'qituvchilari CLT yondashuvini noto'g'ri qabul qilishiga asrlar davomida saqlanib kelgan eskicha qarash ustoz-shogird nazariyasidir. Shuni alohida ta'kidlash kerak-ki, o'quvchilarida kommunikativ kompetensiya grammatik, nutqiy, strategik va ijtimoiy-lingvistik kompetensiyaning turli o'lchovlarini o'z ichiga olgan ushbu "kommunikativ kompetensiya" atamasining ta'rifi haqida o'qituvchilarni ko'proq xabardor qilinishi lozim. Ingliz tili o'qituvchilari o'rtasida kommunikativ kompetensiya haqidagi bu bilim va xabardorlik juda muhim sanaladi. Bugungi kunda zamonaviy ilm dargohlarida ushbu metoddan keng qo'llaniladi va ushbu metodning ilmiy muvaffaqiyati ham to'liq isbotlangan. Kommunikativ til o'qitish metodi va uning o'ziga xos xususiyatlari. CLT (kommunikativ til o'qitish) metodida kommunikativ kompetensiyaga erishishga qaratilgan. Kommunikativ kompetensiya til o'rganishning uchta yo'nalishi bo'yicha kompetensiya sifatida tavsiflanadi, bular grammatik, sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalardir. Strategik kompetensiya bu suhbatda talabalar o'zini muvaffaqiyatli ifoda eta olish va muloqotning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday qiyinchilik yoki qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan. Ushbu kompetensiyani to'ldiruvchilardan foydalanish, fikrdan chetga chiqish, izohlash va aylanib o'tish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish orqali oshirish mumkin. Grammatik kompetensiya leksik birikmalar va morfologiya, sintaksis, jumladan, grammatika, semantika va fonologiya qoidalarini bilishni o'z ichiga oladi. Kanale va Sveynning ta'kidlashicha, grammatik kompetensiya har qanday kommunikativ yondashuv uchun muhim yordamchi bo'ladi, uning maqsadi o'quvchilarga jumjalarning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosini aniqlash va to'g'ri ifodalash

bo'yicha bilim berishni o'z ichiga oladi. Ushbu uchta ko'nikmaga qaratilgan muloqot faoliyati o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonch darajasini oshirishga, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini yaxshilashga va lingvistik ijodkorlikni oshirishga yordam beradi. O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda tanlangan adabiyotlar, ma'lumotlar umuman o'rgatiladigan materiallar shunday bo'lishi kerakki u o'zida ham leksik-grammatik va stilistik o'zgarishlarni o'z ichiga qamrab olishi bilan bir qatorda og'zaki va adabiy nutq tuzilmalarini ham aks ettirishi kerak. Kommunikativ mahoratlarning barchasini birdaniga o'rgatib bo'lmaydi. Kommunikativ ta'lim mahoratlarni o'rgatish jarayonini bir nechta bosqichga bo'lamiz. Birinchi bosqichda o'quvchilar shaxsiy yoki o'qituvchilarni kasbiy yo'naltirilgan faoliyatlarini dinamik o'zgaruvchan holatlarda maqsadga yo'naltirilgan kuzatuvlarini hamda idrok etishlarini tashkil qilish kerak. Ikkinchi bosqichning vazifasi o'quvchilar o'qituvchilari bilan birgalikda ishlab chiqqan o'quv-kommunikativ topshiriqlarni amalga oshirish jarayonida kasbiy yo'naltirilgan mashqlarni bajarishidir. Uchinchi bosqichda o'quvchilar tomonidan kasbiy yo'naltirilgan kommunikativ faoliyatni mustaqil amalga oshirishni tashkil qilish. Birinchi bosqichda o'zini yoki o'zaro ta'limni tashkil qilishni motivatsion asosi o'rnatuvchi kirish suhbatida o'qituvchi o'quvchilarga kommunikativ sherikchilik va hamkorlik prinsiplari asosida tashkil qilingan mashg'ulotni mazmun va mohiyatini tushuntiradi. O'qituvchining nutqi o'quvchini har qanday nutq faoliyati uchun namuna va yo'nalishdir. O'quvchiga yaxshi namuna ko'rsatish uchun o'qituvchi o'z nutq faoliyatiga e'tibor berishi va quyidagilarga amal qilishi kerak:

1. Eng avvalo muloqotda sergap bo'lmang.
2. Yangi materialni kiritishda, muammoli masalalarni hal qilishda oldindan tanish bo'gan narsalarga izoh bermang. Sizning vazifangiz o'quvchilar bilan o'ylash, o'quvchilar uchun emas.
3. Aynan bitta o'quvchidan takror va takror so'ramang. O'qituvchining to'g'ri nutq faoliyati tinglashni ham bilish, tilda etarli bolmagan vositalarni o'z vaqtida aytish mahoratidir.
4. Shuni unutmangki, o'quv muloqotida o'quvchi uchun oddiy, tushunarli bo'lgan nutq ataylab murakkablashtirilgan nutq bilan almashib turishi kerak.
5. Imkoni boricha o'quvchilarga tushunarli qilib gapiring, o'quvchi sizni tushunishga harakat qilsin.
6. Siz tomoningizdan quyidagi baholovchi xarakterda bo'lgan, xushmuomalalik konstruktsiyalarini «men bilishimcha», «agar adashmasam», «meni bunga yuz foiz ishonchim komil emas, lekin» kabi birikmalarni ishlatish sizning nutqingizni intellektual boyitadi va o'rganuvchilarga tez-tez ishlatiladigan nutq vositalari bilan tanishish imkonini beradi.

Kompetensiyaviy yondashuv tushunchasi XXI asr boshida ta'limni moderenizatsiya qilish muammolari va yo'llari borasidagi munozaralar jarayonida ommalashdi. Rus tilshunosligida ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv masalasi dastlab I.Zimnaya, A.Xutorskiy, B.Elkonin kabi ko'plab olimlar tomonidan

tadqiq etilgan bo'lib, ularning ishlarida kompetensiyaga ega muataxassis malakali muatxassisdan nafaqat ma'lum darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarga egaligi, balki ularni ish faoliyatida qo'llay bilishi hamda samarali qo'llashi bilan samarali farq qilishi ta'kidlanadi. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim maqsadlarini belgilashning umumiy tamoyillari, ta'lim mazmunini tanlash, ta'lim jarayonini tashkil qilish va ta'lim natijalarini baxolash yig'indisidir. O. Permyakov ta'rifida kompetentlik deganda shaxsning kasbiy ta'lim muassasi bitiruvchisini tayyorlash natijasi sifatida ma'lum sohalarada faoliyat yuritish uchun umumlashtirilgan sifatleri tavsifi tushuniladi. Uning fikricha, kompetensiya faoliyat subyektning layoqati, bilim, ko'nikma va malakalarni yaxlit ajralmas tarzda aks ettirib, uning muayyan faoliyat turi doirasidagi funksiyalarni bajarishdagi tayyorligini ko'rsatadi". Gapiruvchi (tinglovchi) ning kompetensiyasi uni modellar asosida chegaralanmagan miqdordagi gaplarni tuza (tushuna) olishga, shuningdek tillardagi o'xshashlik va farqlarni hisobga olib, mulohazali hukm chiqara olishga qodir bo'lishi kerak. Shuningdek, "competence" so'zining bellashmoq, raqobatlashmoq, musobaqalashmoq" kabi ma'nolarni ifodalaydigan "*compete*" o'zagiga e'tibor qaratishimiz lozim. Ushbu o'zak tushuncha inobatga olinadigan bo'lsa, "competence" so'zining ma'nosi yanada teranlashadi va u ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun mutaxassisning raqobatbardoshligini ta'minlovchi zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalarni ifodalaydi. Kommunikativ kompetensiya ingliz tili bo'yicha egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo'llash layoqatidir. Kommunikativ kompetensiya lingvislik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalar majmuyidan iborat bo'lib, mazkur kompetensiyalar tarkibiga yana bir qancha kompetensiyalar kiritilgan. Kommunikativ kompetensiyani egallanishi ingliz tili o'qitishning asosiy maqsadi sifatida e'tirof etilayotgan bugungi kunda kommunikatsiyani asosiy o'qitish vositasi, kompetensiyani ta'lim maqsadi sifatida tan olinishiga sabab bo'ldi. Kommunikativ kompetensiya lingvistik nazariyasining o'ziga xosligi quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

1. Til ma'no ifodalash tizimidir.
2. Tilning bosh funksiyasi interaksiya va kommunikatsiyani vujudga keltirishdir.
3. Til strukturasi uning funksional va kommunikativ foydalanilishini aks ettiradi.
4. Asosiy til birliklari uning grammatik va struktural funksiyasi emas, balki diskursda aniqlanadigan funksional hamda kommunikativ ma'no kategoriyasidir.

O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani, ya'ni suhbatga kirishib olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish, nutqiy faoliyat usullarini o'rgatuvchi kommunikativ topshiriqlar orqali tashkil qilinadi. Bunday topshiriqlar o'quvchi tomonidan tayyorlanadi. Muloqot jarayonida kommunikativ topshiriqdagi fonetik, grammatik belgilarni idrok qilish taqlidiy o'zlashtirish yoki yod olish orqali amalga oshiriladi. Taqlidiy o'zlashtirish eshitgan jumla mazmunini audio-vizual vositalar yordamida idrok qilish orqali tashkil qilinadi. Yod olish esa kommunikativ

topshiriqni bajargandan keyin o'zlashtirilgan og'zaki nutq materiali asosida uyushtiriladi. An'anaviy o'qitishda so'zlar ifodalagan ma'noni tushunmasdan yodlash xotirada uzoq saqlanmaslik bilan xarakterlanadi. Eshitib tushunilgan nutq materiali ko'p martalik takror asosida mustahkamlangach, bu o'quvchiga o'z fikrini mazmunli ifodalash usullarini, ma'lum bir nutq vaziyatlarida suhbatdoshiga nimani gapirishni, qanday gapirish usullarini egallashga yordam beradi. Chet tilini o'rganishda kommunikativ kompetensiyani oshirish uchun turli metodlardan foydalanish muhimdir. Bu metodlar o'quvchilarga nafaqat tilni o'rganishga, balki uni amaliy ravishda qo'llashga yordam beradi, shuningdek, ularning muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'qituvchilar ushbu metodlarni birlashtirib, talabalarning ehtiyojlariga mos ravishda darslarni tashkil etishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR:

1. Canale, Michael. "From communicative competence to communicative language Pedagogy." *Language and communication* 1.1 (1983): 1-47.
2. I.Karimov., PQ-1875-son. 2012 yil 10 dekabr, Toshkent sh.
3. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi.-T. 1996 .
4. Miroljubov, A.Raxmanov, I.V.,Setlin V.S. Taxriri ostida. O'rta maktabda chet tillar o'qitishning umumiy metodikasi.-T O'qituvchi 1974.
5. KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANING INGLIZ TILINI O'QITISHGA ROLI VA AHAMIYATI Ahmedova Gulmira Oxunjonovna.
6. Ingliz Tilida Talabalarning Kommunikativ Kompetentligini Rivojlantirishning Ahamiyati Abdulxay Qosimov, G'ulomova Nozimaxon.
7. CHET TILLARINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV (Communicative approach to foreign language teaching) Saydalieva Nigora Faxritdinovna.
8. <https://interonconf.org/index.php/spa/article/download/7024/6064/5916>